






I. YALPI HUDUDIIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yil yanvar-iyun oylarida Buxoro viloyatining ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YAHM) ning hajmi 19 476,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021 yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 4,1 foizga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,0 foizga yetdi.



2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2021 yil	2022 yil	
	I. YAHM	16 102,8	19 476,5	104,1
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 499,8	18 509,9	104,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	603,0	966,6	108,3
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 499,8	18 509,9	104,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 182,4	6 901,6	103,3
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 166,2	5 327,9	101,3
	sanoat	2 644,6	3 539,2	101,0
	qurilish	1 521,6	1 788,7	101,8
	Xizmatlar	5 151,2	6 280,4	106,9
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 265,6	1 664,8	116,1

		Mlrd. so'm		o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2021 yil	2022 yil	
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	959,0	1 097,2	108,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 926,6	3 518,4	102,4

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 9 818,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,5 foizga yuqoridir.












2021-2022 yillarning yanvar- iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,0 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 5,0 foizini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 37,3 foizni, sanoat tarmog‘ining ulushi 19,1 foizni, qurilish sohasida 9,7 foizni va xizmatlar sohasi 33,9 foizni tashkil qildi.

<div>  <div> 2021-2022 yillarning yanvar- iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da) </div> </div>			
		2021 yil	2022 yil
	I. YAHM	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	96,3	95,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,7	5,0
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	39,9	37,3
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	26,9	28,8
	sanoat	17,1	19,1
	qurilish	9,8	9,7
	Xizmatlar	33,2	33,9
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	8,2	9,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,2	5,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	18,8	19,0




2021-2022 yillarning yanvar- iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


2021- yil




2022- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,3 foiz (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi (37,3 foiz), sanoatda 101,0 foiz (19,1 foiz), qurilishda 101,8 foiz (9,7 foiz), xizmatlar sohasida 106,9 foizni (33,9 foiz) tashkil etdi.




2021-2022 yillarning yanvar- iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2022 yilga YAHM deflyatori indeksi 2021 yildagi narxlarga nisbatan 116,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat sohasida 132,5 foiz va qurilishda tarmog'ida 115,4 foiz qayd etildi.



**2021-2022 yillarning yanvar- iyun oylarida YAHMning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**2021-2022 yillarning yanvar- iyun oylarida YAHMda kichik
biznesning ulushi
(jamiga nisbatan %da)**



2022- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 72,0 % ni tashkil qildi (2021- yilda – 73,5%).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.